

**VAHOB RAHMONOVNING NAVOIY ASARLARI BORASIDAGI
TADQIQOTLARI TALQINI****TOG‘AYEVA MUNISA BAXTIYOR QIZI****GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI****2-BOSQICH MAGISTRANTI**

munisatogaeva06072024@gmail.com TEL: +99

8915005250

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiyotshunos olim Vahob Rahmonovning Alisher Navoiy asarlari va shaxsiyati borasidagi ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Olimning Navoiy ijodiga bo‘lgan munosabati, matnshunoslikdagi o‘ziga xos yondashuvi, qo‘lyozmalar va nashrlar ustidagi tadqiqotlari yoritilgan. Shuningdek, Vahob Rahmonov tomonidan ayrim bayt va matnlardagi xatolarni aniqlash hamda ularni ilmiy asosda tuzatish jarayonlari misollar orqali ko‘rsatib berilgan. Maqolada olimning navoiyshunoslik va matnshunoslik rivojiga qo‘shgan hissasi baholangan.

Kalit so‘zlar: Vahob Rahmonov, Alisher Navoiy, matnshunoslik, navoiyshunoslik, mumtoz adabiyot, qo‘lyozma, tabdil, badiiy talqin.

ANNOTATION

This article analyzes the scientific views of the literary scholar Vahob Rahmonov on the works and personality of Alisher Navoiy. The scholar's attitude toward Navoiy's creativity, his unique textual approach, and his studies on manuscripts and published editions are discussed. The article also highlights Rahmonov's identification and correction of textual errors in several poetic lines through scientific analysis. Furthermore, the contribution of the scholar to the development of Navoi studies and textual criticism is evaluated.

Keywords: Vahob Rahmonov, Alisher Navoiy, textual criticism, Navoi studies, classical literature, manuscript, interpretation, literary analysis.

Vahob Rahmonov o‘z qarashlarini hamisha asosiy matn va sog‘lom mantiq yordamida asoslashga urinishi haqida adabiyotshunoslarning fikrlari mavjud. Jumladan, olim hazrat Navoiyning saxovatda tengsiz kishi ekanligi haqida: “Navoiy o‘zbek xalqidan chiqqan va o‘z saxovatli faoliyati bilan arab Hotami Toyi sarguzashtlarini cho‘pchakka chiqargan quyoshsifat siymo edi”¹ – deyishida ushbu daho ijodkorga nisbatan cheksiz hurmat va izzat-ikrom seziladi. Olim o‘z fikrlarini shoir ijodidan keltirilgan quyidagi she‘riy parcha bilan mustahkamlaydi:

¹ Раҳмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т. : “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. – Б. 6.

Ey Navoiy, olam ahlida ta'masiz yo'q kishi,
Har kishida bu sifat yo'qtur – anga bo'lg'ay sharaf!
Sen agar tarki ta'ma qilsang, ulug' ishdir bukim:
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen – bir taraf.

Ta'masizlik borasida o'zini olam ahliga qarshi bir taraf qo'ya olgan dahoning saxovati to'g'risida olim yozadi: "Navoiy o'z daromadlarining 98 foizini elga ehson etar, ikki foizini o'z shaxsiy ehtiyojlariga sarflardi"². Vahob Rahmonov domlaning navoiyshunoslik borasidaga ko'plab tadqiqotlarida Alisher Navoiy shaxsi va ijodiga bo'lgan cheksiz muhabbat sezilib turadi. O'sha muhabbat tufayli V.Rahmonov ijodida o'ziga xos qarashlar mavjud. Jumladan, olim Navoiyning to'rt yoshidan maktabga borganini: "Hirot an'anasiga ko'ra bola 4 yil-u to'qqiz oy, to'qqiz kunlikda maktabdorga olib borilgan"³, - tarzida asoslaydi. Shunga ko'ra biz bu faktga to'laqonli amin bo'lamiz.

Vahob Rahmonov Navoiy hayoti va ijodini g'oyat sinchkovlik bilan o'rganib: "... shoir hayoti fojialar ichida kechganini idrok eta olamiz. Bu po'lat odam, bu xalqimizning moddiy va ma'naviy quyoshi, shaxsiy hayotidagi baxtsizligidan tamoman ko'z yumib, el baxti uchun umrini fido qilish namunasini ko'rsata olgan bashariyatning balki yagona farzandi edi", - degan o'ziga xos xulosaga keladi. Ustoz bu fikrni mavzuga aloqador turli dalillar bilan isbotlaydi.

Mumtoz adabiyotshunoslikda sulton Abusaid mirzo nomi qoralangan holda tilga olinadi. Aksar holatda Alisher Navoiyning Hirotidan surgun qilinishi sababchisi sifatida ko'rsatiladi. Lekin Vahob Rahmonov ustoz bu haqida o'zgacha fikrda ekanligi kuzatiladi. "... Alisher Navoiy yangi hukmdor Abusaid mirzo qabulida bo'ldi. Biror soatlik suhbatdan Xuroson va Movarounnahr hukmdori o'z mamlakatida Alisher Navoiychalik zabardast qalam egasi yo'qligiga va buningchalik donishmand kishi ozligiga amin bo'ladi. Biz bu xulosaga uning ikkita ishi yuzasidan kelmoqdamiz:

1) saroy musavvirlari va xattotlariga Navoiy devonini shahona qilib tayyorlash haqida buyruq berildi;

2) Alisher Navoiyni o'g'li Abobakr mirzoga o'qituvchi qilib tayinladi"⁴. Bundan ko'rinadiki, Abusaid mirzo Navoiyning ilk devonini nashrga tayyorlanishiga ham sababchi bo'lgan hamda unga o'z o'g'li tarbiyasini ishonib topshirgan bo'lib chiqmoqda.

Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga cheksiz muhabbat bilan qaragan olim shoirning o'zbek mumtoz adabiyotiga qo'shgan tengsiz hissacini rad qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbotlab, Husayn mirzoga ergashib, Navoiyni so'z mulkining sohibqironi, deb ataydi. Bunday to'xtamiga hazratdan bo'lak biror shoir

² Rahmonov V. O'sha manba. – B. 7.

³ Rahmonov V. O'sha manba. – B. 9.

⁴ Раҳмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т. : "Ўзбекистон" НМИУ, 2015. – Б. 12.

sakkiz devon va juda mukammal bo'lgan "Xamsa" yaratmaganini asos qilib keltiradi.

Mumtoz adabiyot borasida fikr bildirish oson emas. Xususan, juda ko'p tadqiqotlarga mavzu bo'lgan, har bir asari alohida sinchiklab o'rganilgan, qayta-qayta tahlilga tortilgan Alisher Navoiy merosi haqida yangi gap aytish ham mushkul vazifa. Ammo Vahob Rahmonov hazrat Navoiy ijodi va shaxsiga yangi rakursdan qaray biladi, asarlari nashridagi yo'l qo'yilgan ayrim g'alizlik va kamchiliklarni to'g'rilash yo'llarini ko'rsatadi. Buning uchun u shoir asarlarining necha nashri, bir qancha qo'lyozma nusxalarini o'zaro solishtiradi.

Muallif o'zining turli tillardagi ilmiy, nazariy, adabiy manbalardan chuqur xabardorligiga asoslanib yozadi: "Navoiyning badiiy ixtiro usullari shu darajada tadqiqotchini lol qoldiradiki, u ularni izohlashga qiynaladi. Chunki bunday usullarni dunyodagi biror kishi qo'llamagan. ...Hozirgi zamon hikoyalaridagi kutilmagan vaziyatlar yaratishdek usullar Navoiy she'riyatida an'anaviy talqinlar bilan uyg'unlikda yashaydi. Biz bu usulni boshqa biror shoir ijodida uchratganimizcha yo'q"⁵. Navoiyshunos olim o'z fikrlarini daho ijodkorning qator asarlaridan keltirilgan misollar bilan isbotlab beradi.

Vahob Rahmonov Alisher Navoiy asarlari tiliga ham alohida e'tibor qaratgan. Shoirning badiiy mahorati masalasini ham o'ziga xos shaklda kuzatgan: "Obrazli qilib aytganda muallif guruch donasiday fil suyagidan butun boshli san'at asarini yaratgan"⁶.

Navoiyshunos olim Alisher Navoiyni: "Navoiyni Millat dahosi, Xalq dahosi, xalq aql-idroki, vijdoni darajasiga ko'tarish ziyolilar va davlatning burchidir"⁷ – deyish orqali buyuk mutafakkirning o'zbek millati tarixidagi cheksiz o'rnini eslatib o'tadi. Yana bir o'rinda: "Alloh bizga Alisher Navoiydek shaxs va adabiy dahoni bergan ekan, o'zbek xalqi o'zini uning vorisi hisoblar ekan, merosdan bahramandlik baxti har bir o'zbekman degan kishi uchun nasib etishini ta'minlash davlat va ziyolilarning eng olijanob burchlari bo'lib qolaveradi"⁸, - deyish orqali esa yuqoridagi fikrini mustahkamlaydi.

Olim Alisher Navoiy asarlari matnlarni tekshirish, talqin qilish, amaldagi alifboga o'girib tabdil qilishda o'tib ketgan xatolarni zukkolik bilan payqaydi va bu holatga o'ta salbiy munosabatda bo'ladi. Har bir xatolikni asl matnga tayangan holda asoslab beradi. Bunda u yaxlitlik tamoyiliga tayanadi. Ya'ni noto'g'ri o'qilgan so'zning o'zinigina emas, uning ma'nosini tahlil qiladi. Bunda so'zning lug'aviy va kontekstdagi ma'nolarini o'zaro taqqoslash yo'lidan boradi.

Olimning Alisher Navoiy dahosi va ijodiga o'zgacha muhabbati, cheksiz hayrati, muxlis va ilm odami sifatidagi samimiy e'tirofi uning har bir asarida yorqin ko'zga

⁵ Раҳмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т. : "Ўзбекистон" НМИУ, 2015. – Б. 17.

⁶ O'sha kitob. – B. 20-21.

⁷ O'sha kitob. – B. 437.

⁸ O'sha kitob. – B. 438.

tashlanadi. E'tiborsizlik bilan qo'llanilayotgan so'zning qadri, qimmatini ustozning deyarli barcha tadqiqotlarida aks etadi. Olim so'zga mas'uliyat bilan yondashish zarurligini ta'kidlaydi.

Vahob Rahmonov Alisher Navoiy g'azallariga payrovlar yozilgani, o'nlab "Xamsa"lar tatabu' tarzda bitilgani, dostonlar yozilgani, hikoyat va rivoyatlar to'qilganidan faxr tuyg'usini tuygan muallif. Alisher Navoiy dahosi ta'sirida asarlar yaratilganini, yaratilayotganligini bilib olish mumkin.

"Olam ahli! Bilingizkim, ish emas dushmanlig',

Yor o'lung bir-biringizg'akim, erur yorlig' ish!

Alisher Navoiyning komillik belgilari va shaxsiy xususiyatlari olimning tadqiqotlarida to'laqonli bo'y ko'rsatgan.

Vahob Rahmonovning Alisher Navoiy asarlari tabdilchisi sifatidagi faoliyati olimning mamlakatimizning ko'zga ko'ringan olimlar tomonidan e'tirof etilganligi bilan bog'liq. Xususan, taniqli olim, professor Hamid Sulaymon Xo'jand davlat pedagogika instituti rektori nomiga iltimosnoma yozib, o'sha paytda yosh olim bo'lgan Vahob Rahmonovni Toshkentga, Qo'lyozmalar institutida ishlashga taklif qilganligi bunga misol bo'la oladi.

1978-yilda Qo'zyozmalar instituti direktori Hamid Sulaymonning xonasida esdan chiqmaydigan g'aroyib suhbat bo'lib o'tadi. Taniqli olim hazrat Mir Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devonlarini 1959–1960-yillarda nashrga tayyorlab, chop ettirgan bo'ladi. Vahob Rahmonov domla "Ilk devon"dagi quyidagi baytni Hamid Sulaymonning o'ziga o'qitib, ma'nosini sharhlab berishlarini iltimos qiladi.

Ey Navoiy, gar vafosiz chiqti ul **Sulton Husayn**,

Topding eldinkim, tilarsen emdi sultondin vafo.

Olim nima deyishini bilmay qoladi. Noshirning matnni noto'g'ri o'qiganligi bois butunlay teskari ma'no chiqqanligini Vahob Rahmonov o'z talqini bilan isbotlab beradi. Bu Hamid Sulaymonni hayratlantiradi:

Ey Navoiy, gar vafosiz chiqti ul **sultoni husn**,

Topding eldinkim, tilarsen emdi sultondin vafo?!

Sulton Husayn va sultoni husn jummalari chalkashtirilganligi ma'lum bo'ladi. O'sha joyning o'zida professor Hamid Sulaymon Vahob Rahmonov bilan "Xazoyin ul-maoniy"ning to'rt jildligi tahriri yuzasidan shartnoma imzolaydi.

Vahob Rahmonov Navoiy dahosiga: "Navoiyni Millat dahosi, Xalq dahosi, Xalq aqli-idroki, vijdoni darajasiga ko'tarish ziyolilar va davlatning burchidir"⁹, degan konsepsiya orqali yondashadi. O'zining navoiyshunoslik ilmi bilan shug'ullanishi haqida olim shunday deydi: "Kamina 1970-yildan beri shu sohani kuzatib, izchil o'rganib, matnshunoslar mahsullarini yutuq va kamchiliklarini tahlilu sarhisob qilib,

⁹ Раҳмонов В. Мумтоз сўз баҳси. – Т.: Adabiyot, 2022. – Б. 59.

ularning ishiga baqadrihol maqolalar bag'ishlab, rad va tanqid etganlariga vaqtida va kechroq javoblar berib kelmoqdaman"¹⁰. Ushbu fikrlar ustozning o'z mashaqqatli mehnatini kamtaringina baholashi deyish mumkin.

Olim Alisher Navoiyning ko'plab bayt she'rlaridagi minglab xatolarni tuzatganligi barchaga ma'lum. Shulardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

Fosh mehri tuxmini ko'nglumda ekdim, ko'r nishon,

Har so'ngak yonimda **urmoqda muhabbat** dosidin

She'rdagi "dos" o'roq ekanligi inobatga olinsa. Ta'rifda qoshning bo'lganligi ma'qul ekanligi ko'rsatib berilgan.

Qoshi mehri tuxmini ko'nglumda ekdim, ko'r nishon,

Har so'ngak yonimda **o'rmoqda mehnat** dosidin

Shunnigdek, "urmoqda" so'zi "o'rmoqda" sifatida o'zgartirilsa, "Qoshi mehrini oshiq o'z ko'ngliga urug'dek qadagandan so'ng har bir suyak ushbu mehnat samarasini o'radi", ya'ni muhabbat ko'ngilga jo bo'lgach, uning azobi-yu rohatini tana va suyaklar birdek his etadi.

Yoki:

Sahfa yuzi **dardi** jilvagohi,

Musattar xatti hajr shohrohi

Bundagi uch so'z to'g'ri ko'chirilmaganligi ma'lum bo'lgan:

Sahfa yuzi **dard** jilvagohi,

Mistar xati hajr shohrohi

Bayt ma'nosida hayot kitobining har sahifasidan dard jilva qilib turadi, har bir chizig'i va satrida senga hajr hamroh bo'ladi.

Ustoz matnshunosning Alisher Navoiyga nisbatan ehtiromi yuksak darajada: "Hazrat Alisher Navoiyning elga qilgan xizmatini faqat quyoshga o'xshatish mumkin. O'zi kuyib-yonadi-yu jahonni munavvar etadi, dunyo xalqiga tiriklik manba'larini yaratib beradi. Insoniyat o'z uzoq tarixida elfidolikda Navoiyday siymoni ko'rmagan"¹¹. Darhaqiqat, Navoiyning o'z davrida qilgan amallari xalqqa xizmat tarzida qabul qilinsa, yozib qoldirgan irod namunalari millat ma'naviy xazinasiga qo'shilgan duru javohirlar shodasi deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раҳмонов В. Мумтоз сўз сехри. – Т. : "Ўзбекистон" НМИУ, 2015. – Б. 151.
2. "Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya. – Guliston. 2022. – 155 b.
3. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Хўжанд, 1972 (190 бет).

¹⁰ O'sha kitob. – B.72.

¹¹ Раҳмонов В. Мумтоз сўз баҳси. – Т.: Adabiyot, 2022. – Б. 113.

4. Раҳмонов В. Бадий санъат жозибаси (ҳамкорликда). – Т., Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 1995.
 5. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., Ёзувчи, 2001 (72 бет).
 6. Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Т., Ўқитувчи, 1983 (200 бет).
 7. Раҳмонов В. Мумтоз адабий манбалар луғати. – Т., Мумтоз сўз, – Т., 2009 (432 бет).
 8. Раҳмонов В. Бадий санъатлар (ҳамкорликда). – Т., Тафаккур, 2014.
 9. Раҳмонов В. “Мумтоз сўз сеҳри”, – Т., Ўзбекистон, 2015 (438 бет).
- “Бобур энциклопедияси”да 100 дан ортиқ мақолалари бор, – Т., “Шарқ” НМАК, 2014.